# 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,6 % ni tashkil etdi.




Jami investitsiyalar hajmida, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 68,7 %, yoki 3811,1 mlrd. so‘mni va o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davridagi hajmiga nisbatan 97,8 % tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 31,3 %, yoki 1732,7 mlrd. so‘mni va o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,3 % tashkil etdi.



| Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da | | *O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da* |
|---|---|---|
| 0,6 | Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 44,3 |
| 13,0 | Respublika byudjeti | 117,0 |
| 3,8 | Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 264,5 |
| 13,9 | O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar | 91,1 |

| Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da | | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|---|---|
| 27,6 | Korxona mablag‘i | 83,7 |
| 12,2 | Aholi mablag‘lari | 111,5 |
| 16,8 | Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar | 103,0 |
| 9,9 | Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 142,7 |
| 2,2 | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar | 74,1 |

*2021- yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1530,9 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,6 % ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,2 % i yoki 675,4 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.*

*Jami xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1823,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 95,2 % va shuningdek jami hajmdagi ulushi 32,9 % ni tashkil etdi.*

## *Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari*






Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 550,8 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,9 % ini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 42,7 foizli punktga oshdi), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 769,2 mlrd. so‘m (13,9 % va 8,9 foizli punktga kamaydi), xorijiy investitsiyalar 206,5 mlrd. so‘m (3,7 % va 20,6 foizli punktga oshdi), kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 847,5 mlrd. so‘m (15,3 % va 5,8 foizli punktga kamaydi), tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 211,3 mlrd. so‘m (3,8 % va 2,6 martaga oshdi). Respublika byudjeti 718,0 mlrd. so‘m (13,0 % va 17,0 foizli punktga oshgan), suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi 34,2 mlrd. so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan *o‘sish sur‘ati* 44,3 % ni tashkil etdi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

*Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur‘atlarini moliyalastirish manbalari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan moliyalashtirilgan ivestitsiyalar bulib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 martaga oshdi.*

*Respublikaning barcha tumanlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash ishlari va elektr energiyasini ishlab chiqarish, gaz ta’minoti loyihalarining bajarilishi, va shuningdek temir yo‘l yo‘lovchi transporti va yuk transportini yanada takomillashtirish ishlari bo‘yicha loyihalar investitsion faollik bilan izohlash mumkin.*

*Shuningdek,yuqori o‘sish sur‘ati ko‘rsatkichi tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan kuzatilib, usish sur`ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 142,7 % ni tashkil qildi.*

## *Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tumanlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar:*

| | Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so‘m | shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Respublika byudjeti | Korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari | Aholining o‘z mablag‘lari |
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **5543,8** | **718,0** | **1530,9** | **675,4** |
| Nukus sh. | 1446,6 | 365,2 | 545,1 | 53,4 |
| tumanlar: | | | | |
| Amudaryo | 244,0 | 15,3 | 29,1 | 70,2 |
| Beruniy | 263,4 | 22,9 | 49,3 | 65,2 |
| Bo‘zatov | 113,9 | 60,3 | 3,2 | 7,5 |
| Qorao‘zak | 234,7 | 14,9 | 70,1 | 18,3 |
| Kegeyli | 82,6 | 11,4 | 13,7 | 21,6 |
| Qo‘ng‘irot | 520,5 | 16,3 | 278,7 | 35,8 |
| Qonliko‘l | 68,9 | 1,7 | 7,6 | 32,1 |
| Mo‘ynoq | 859,8 | 47,5 | 264,1 | 23,1 |
| Nukus | 116,9 | 21,4 | 11,3 | 54,8 |
| Taxiatosh | 266,6 | 8,3 | 49,0 | 35,5 |
| Taxtako‘pir | 54,7 | 7,0 | 7,5 | 13,6 |
| To‘rtko‘l | 526,9 | 26,4 | 40,1 | 78,1 |
| Xo‘jayli | 134,6 | 22,5 | 25,7 | 46,0 |
| Chimboy | 137,6 | 19,7 | 24,9 | 44,9 |
| Shumanay | 109,3 | 8,3 | 43,4 | 19,3 |
| Ellikqal’a | 362,8 | 48,9 | 68,1 | 56,0 |

| | *shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *Xorijiy investitsiya va kreditlar* | *Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi* | *Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi* | *Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag‘lari* |
| ***Qoraqalpog‘iston Respublikasi*** | ***1823,2*** | ***34,2*** | ***211,3*** | ***550,8*** |
| *Nukus sh.* | *246,1* | *8,2* | *118,3* | *110,3* |
| *tumanlar:* | | | | |
| *Amudaryo* | *86,8* | *3,0* | *6,0* | *33,6* |
| *Beruniy* | *97,9* | *0,5* | *4,6* | *23,0* |
| *Bo‘zatov* | *5,3* | *2,1* | *3,7* | *31,8* |
| *Qorao‘zak* | *91,6* | *-* | *6,0* | *33,8* |
| *Kegeyli* | *5,0* | *6,2* | *5,7* | *19,0* |
| *Qo‘ng‘irot* | *145,8* | *-* | *8,4* | *35,5* |
| *Qonliko‘l* | *12,3* | *0,4* | *2,7* | *12,1* |
| *Mo‘ynoq* | *484,8* | *-* | *0,8* | *39,5* |
| *Nukus* | *8,5* | *2,7* | *-* | *18,2* |
| *Taxiatosh* | *114,1* | *2,6* | *26,4* | *30,7* |
| *Taxtako‘pir* | *12,4* | *0,5* | *1,8* | *11,9* |
| *To‘rtko‘l* | *320,2* | *-* | *6,4* | *55,7* |
| *Xo‘jayli* | *12,3* | *2,9* | *3,9* | *21,3* |
| *Chimboy* | *20,8* | *3,4* | *6,6* | *17,3* |
| *Shumanay* | *13,7* | *1,7* | *2,4* | *20,5* |
| *Ellikqal’a* | *145,6* | *-* | *7,6* | *36,6* |

## *2021- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar*

| | | *o‘sish sur’ati, % da* | *Investitsiyalar hajmi, mlrd.so‘m* | *Respublikadagi ulushi, % da* |
|---|---|---|---|---|
|  | **Nukus shahar** | 176,4 | 1446,6 | 26,1 |
|  | **Amudaryo tumani** | 109,7 | 244,0 | 4,4 |
|  | **Beruniy tumani** | 102,4 | 263,4 | 4,8 |
|  | **Bo‘zatov tumani** | 118,8 | 113,9 | 2,1 |
|  | **Qorao‘zak tumani** | 183,8 | 234,7 | 4,2 |
|  | **Kegeyli tumani** | 113,8 | 82,6 | 1,5 |

| | | *o‘sish sur’ati, % da* | *Investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m* | *Respublikadagi ulushi, % da* |
|---|---|---|---|---|
|  | **Qo‘ng‘irot tumani** | 61,8 | 520,5 | 9,4 |
|  | **Qonliko‘l tumani** | 91,3 | 68,9 | 1,2 |
|  | **Mo‘ynoq tumani** | 95,2 | 859,8 | 15,5 |
|  | **Nukus tumani** | 90,7 | 116,9 | 2,1 |
|  | **Taxiatosh tumani** | 49,1 | 266,6 | 4,8 |
|  | **Taxtako‘pir tumani** | 59,8 | 54,7 | 1,0 |

| | | o‘sish sur‘ati, % da | Investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m | Respublikadagi ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
|  | To‘rtko‘l tumani | 105,2 | 526,9 | 9,5 |
|  | Xo‘jayli tumani | 129,0 | 134,6 | 2,4 |
|  | Chimboy tumani | 105,0 | 137,6 | 2,5 |
|  | Shumanay tumani | 101,6 | 109,3 | 2,0 |
|  | Ellikqal’a tumani | 74,5 | 362,8 | 6,5 |

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilishi bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur‘ati 183,8 % ga o‘sib, Qorao‘zak tumanida kuzatildi. Bu asosan sement ishlab shiqarishni kengaytirish uchun o‘zlashtirilgan xorijiy kreditlar bilan bog‘liq.

Shuningdek, Nukus shahrida ham yuqori o‘sish surati kuzatilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 176,4 % ni tashkil qildi. Xalq-aro ahamiyatga ega bo‘lgan avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish dasturi doirasida o‘zlashtirilgan investitsiyalar va shuningdek gaz ta’minoti, tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turlariga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

Respublikada asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ulush Nukus shahri – 26,1 %, Mo‘ynoq tumani – 15,5 % va To‘rtko‘l tumanida – *9,5 % kuzatildi.*

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning o‘sish sur’atlari, % da**




***Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, % da***

**38,4** — Mashina, uskuna, inventar

**54,7** — Qurilish-montaj ishlari

**6,9** — Boshqa harajatlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 2130,4 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami investitsiyalarning 38,4 % ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo‘yicha 3032,9 mlrd. so‘m (jami investitsiyalardagi ulushi 54,7 %) va boshqa harajatlarga 380,5 mlrd. so‘m (6,9

Tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qo‘ng‘irot tumanida kuzatildi – 80,7 % yoki 420,2 mlrd. so‘m, va ushbu tumanda mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo‘yicha eng quyi daraja – 15,2 % yoki 79,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng quyi daraja Taxiatosh tumanida kuzatilib, 28,0 % ni yoki 15,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

***Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi***

**Yangi qurilish- 32,8 %**

***Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya - 38,8 %***

**Boshqa yo‘nalishlar- 28,4 %**

*Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo‘naltirildi.Va hajmi 2151,0 mlrd. so‘m va jami hajmdan ulushi 38,8 % tashkil etti.*

*Yangi qurilishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 1816,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 32,8 % tashkil etdi.*

*Boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 1576,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 28,4 % ini tashkil etdi.*

## *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, yakunga nisbatan % da*



## *Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar*

*mlrd. so‘m*

| | Jami | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar | O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar | Kafolatlan-magan xorijiy kreditlar |
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **1823,2** | **206,5** | **769,2** | **847,5** |
| Nukus sh. | 246,1 | 9,0 | 198,7 | 38,4 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Amudaryo | 86,8 | 60,9 | 22,5 | 3,4 |
| Beruniy | 97,9 | - | 50,7 | 47,2 |
| Bo‘zatov | 5,3 | - | - | 5,3 |
| Qorao‘zak | 91,6 | 0,1 | - | 91,5 |
| Kegeyli | 5,0 | 4,8 | - | 0,2 |
| Qo‘ng‘irot | 145,8 | 119,9 | - | 25,9 |
| Qonliko‘l | 12,3 | 3,1 | - | 9,2 |
| Mo‘ynoq | 484,8 | 0,3 | - | 484,5 |
| Nukus | 8,5 | 0,3 | - | 8,2 |
| Taxiatosh | 114,1 | 0,3 | 92,8 | 21,0 |
| Taxtako‘pir | 12,4 | - | - | 12,4 |
| To‘rtko‘l | 320,2 | 0,1 | 287,6 | 32,5 |
| Xo‘jayli | 12,3 | - | - | 12,3 |
| Chimboy | 20,8 | 2,4 | - | 18,4 |
| Shumanay | 13,7 | 5,3 | - | 8,4 |
| Ellikqal’a | 145,6 | - | 116,9 | 28,7 |

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 1823,2 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 32,9 % ini tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 206,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, xorijiy kreditlar hisobidan bo‘lsa 1616,7 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da



**30,9 %**

***Qishloq xo‘jaligi***



**33,0 %**

***Tog‘-kon sanoati***



**13,9 %**

***Qayta ishlash sanoati***



**10,7 %**

***Tashish va saqlash***



**5,4 %**

***Elektr energiyasi, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash***



**1,6 %**

***Ulgurji va chakana savdo***

**4,5 %**

***Boshqalar***

***Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi***

Aloqa telefoni: ***(61) 224-92-14***
***222-75-91***